

YUSUF XOS HOJIBNING AXLOQIY QARASHLARI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15715676>

Umarov Muhammadqodir Shokirali o'g'li

Alfraganus universiteti Falsafa
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Yusuf Xo'ja Hojibning "Qutadg'u bilig" asari turk tilida yozilgan eng muhim falsafiy asarlardan biridir. Bu asar insonning axloqiy va ma'naviy rivojlanishiga, jamiyatda adolat va tinchlikni saqlashga qaratilgan qimmatli g'oyalarni o'z ichiga oladi. Yusuf Xos Hojibning axloqiy qarashlari asosan insonning shaxsiy va ijtimoiy fazilatlarini rivojlantirishga, o'zaro hurmat va mehr-oqibatni targ'ib qilishga qaratilgan.

Asarda Hojib axloqiy fazilatlar sifatida sabr, halollik, adolat, tinchlik va xushxulqlikni ta'kidlaydi. U, insonni axloqiy jihatdan to'g'ri yo'lni tanlashga undaydi va har bir insonning shaxsiy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratadi. Allomaning fikriga ko'ra, ijtimoiy barqarorlik va tinchlik faqat shaxsiy axloqiy fazilatlarini rivojlantirish orqali ta'minlanishi mumkin. Shu bilan birga, uning ta'limotida jamiyatda adolatni, tenglikni va ahil munosabatlarni saqlashning ahamiyati katta o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: axloq, "Qutadg'u bilig", adolat, haqiqat, axloqiy fazilatlar.

Abstract: Yusuf Khoja Hajib's work "Qutadgu bilig" is one of the most important philosophical works written in the Turkic language. This work contains valuable ideas aimed at the moral and spiritual development of individuals, and the preservation of justice and peace in society. Hajib's moral views primarily focus on developing personal and social virtues, promoting mutual respect and compassion.

In the work, Hajib emphasizes patience, honesty, justice, peace, and good conduct as moral virtues. He encourages individuals to choose the morally correct path and pays special attention to the personal development of each person. According to the scholar, social stability and peace can only be ensured through the development of personal moral qualities. At the same time, his teachings place great importance on maintaining justice, equality, and harmonious relationships in society.

Keywords: ethics, "Qutadg'u bilig," justice, truth, moral virtues.

Kirish: Bugungi kunda mamlakatimizda buyuk allomalarning ilmiy-ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, yosh avlodni ajdodlarimizning ezgu an'analari ruhida tarbiyalash bo'yicha islohotlar izchil davom ettirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMT bosh assambleyasining 72-sessiyasida bu borada quyidagicha fikr bildirib o'tgan.

“Biz ajdodlarimizning donishmandlik an’alariga amal qilib, ularning g’oyalari teran anglagan holda, qat’iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamalakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo’lidan bormoqdamiz”.^[1] Allomalarimizni nomini tiklash, ularning merosini o’rganish borasidan ulkan ishlar qilinmoqda. Shunday allomalarimizdan biri Yusuf Xos Hojibdir. Uning faqat birgina asari bizgacha yetib kelgan bo’lib bu asar “Qutadg’u bilig”dir. Yusuf Xojib, o’zining “Qutadg’u bilig” asari orqali turkiy xalqlarning qadimiy axloqiy, diniy va falsafiy qarashlarini beqiyos darajada ifodalagan buyuk mutafakkirlarimizdan biridir. Asaridagi axloqiy ta’limotlar, insonning yuksak ma’naviyati, adolat va axloqiy qadriyatlarni himoya qilish, davlat boshqaruvining ilmiy va axloqiy asoslarini yaratish kabi masalalarni muhokama qiladi. Yusuf Xojibning axloqiy qarashlari nafaqat o’z davriga, balki hozirgi kunda ham ahamiyatini yo’qotmagan, insoniyatning doimiy taraqqiyoti va ijtimoiy adolatni ta’minlash yo’lidagi amaliy yo’riqnoma hisoblanadi.

Uning asarida, insonning axloqiy kamolotga erishish uchun qanday xulq-atvorni rivojlantirishi, qanday fazilatlarni o’zida jamlashi kerakligi haqida keng qamrovli tavsiyalar berilgan. Ayniqsa, Yusuf Xojibning “Yaxshi hukmdor va yaxshi fuqaroning” birgalikdagi ahamiyatiga e’tibor qaratilgan bo’lib, bu uning jamiyatda adolat va tartibni saqlashdagi roli haqida chuqur mulohazalar yuritishiga olib kelgan.

Adabiyotlar tahlili: Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, Yusuf Xos Xojib merosini o’rganish bo’yicha sharqshunos olimlardan G.Vamberi, V.V.Radlov,^[2] Turkiston jadidlaridan X.Niyoziy, A.Fitrat, A.Sa’diy, zamonaviy tadqiqotchilardan A.K.Axmetov, S.Ahmedov, Sh.Xo’jayev, R.Davronov, M.Tursunova, A.P.Qayumov, G’.A.Abdurahmonov, Q.Karimov, Q.Sodiqov, B.To’xliev, Z.Hamidovlar tomonidan allomaning ma’naviy merosining har taraflama ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tahlil qilingan. Turkiston ma’rifatparvarlarining faol vakillaridan Xamza Xakimzoda Niyoziy “Qutadg’u bilig”da Xos Hojibning axloqiy qarashlarini Islomiy fazilatlar bilan uyg’un holda tahlil qiladi va Xos Hojibning axloqiy me’yorlarini Islomiy ta’limotlar bilan bog’laydi. Abdurauf Fitrat esa “Qutadg’u bilig” asari haqida quyidagicha: “...san’atli bir she’r majmuasi emas, manzum bir axloqiy, idoriy kitobdir. Bunda inson sifatlaridan adolat, davlat, aql, qanoatni majoz yo’li bilan to’rt kishi etib ko’rsatiladi. Bulardan adolat xoqon bo’lub, oti “Quntug’di”, davlat uning vaziri bo’lub, oti “Oyto’ldi”, aql vazirning o’g’li bo’lib, oti “Ugdulmish”, qanoat vazirning qarindoshi bo’lib, oti “Uzg’urmish”dir ^[3] deb asar haqida fikr bildirgan.

Zamonaviy tadqiqotchi olimlardan A.K.Axmetova “Qutadg’u bilig” asarining ma’rifiy-pedagogik ahamiyati, asardagi urf-odat, qadriyatlar xususida ilmiy tadqiqotlar olib borgan.^[4] S.Ahmedovning ilmiy tadqiqotlari Xos Hojibning axloqiy qarashlarini zamonaviy nuqtai nazardan tahlil qilishga qaratilgan. U “Qutadg’u bilig” asaridagi axloqiy qadriyatlarni o’rganib, bu g’oyalarning jamiyatni shakllantirishdagi o’rnini yoritadi. M.Tursunova Xos Hojibning axloqiy

qarashlarini tahlil qilib, uning asarlarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishda individ va jamiyatning o'zaro bog'liqligini o'rgansa [5], R.Davronov esa Xos Hojibning adolat va tenglik haqidagi qarashlarini yoritadi. U Xos Hojibning jamiyatdagi adolatni o'rnatish haqidagi g'oyalarini zamonaviy ijtimoiy va siyosiy g'oyalar bilan solishtiradi.[6]

Tadqiqot metodologiyasi: Bugungi kunda Yusuf Xos Hojibning axloqiy qarashlarini o'rganish va tahlil qilishda bir qator metodologik ilmiy usullarni o'z ichiga olmoqda. Ushbu metodologiya asosan tafsiliy tahlil, matnshunoslik, tarixiy kontekstni hisobga olish va interdisiplinar yondashuvlarga asoslanadi.

Tahlil va natijalar: Yusuf Xos Hojib (1029-1085) — Turkistonning buyuk mutafakkiri, faylasufi va yozuvchisi bo'lib, u “Qutadg‘u bilig” (Baxtiyorlik ilmi) asari orqali turk xalqlarining axloqiy, siyosiy va ma'naviy qadriyatlarini o'zgacha shaklda ifodalagan. “Qutadg‘u bilig” asarida insonning ijtimoiy mohiyati, falsafiy tafakkuri va uning axloqiga oid masalalar obrazli, badiiy yuksak misralar, she'riy hikmat, maqollar orqali yoritib o'tilgan. Asardagi bosh qahramonlar Kuntug‘di-adolat, Oyto‘ldi-baxt va davlat, O‘gdulmish-aql, O‘zg‘urmish- sabr-qanoat insonni komillikka yotaklovchi obrazlar orqali alloma o‘z ijtimoiy-falsafiy qarashlarini bayon etgan. Shuningdek asarda insonning axloqiy maqsadlari, jamiyatdagi o‘rni, yaxshilik va yomonlikning o‘zaro aloqasi, shuningdek, shaxsiyatning rivojlanishidagi o'ziga xos tamoyillarni keltirib o'tilgan.

Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida bir nechta asosiy axloqiy tamoyillarni ilgari suradi: Xususan:

1. Adolat va haqiqat: Yusuf Xo'ja Hojib jamiyatdagi adolatni va haqiqatni yuqori qadriyat sifatida qabul qiladi. Uning fikriga ko'ra, faqat adolat va haqiqat asosida qurilgan jamiyat barqaror va rivojlanadigan bo'ladi. Adolatni ta'minlash va haqiqatni izlash, insonning maqsadlaridan biri bo'lishi kerak.

2. Iymon va axloqiy fazilatlar: Yaxshi iymon va axloqiy fazilatlar; halollik, sabr, mehr-shafqat Yusuf Xos Hojibning axloqiy dunyoqarashida markaziy o'rinni egallaydi. Iymonli inson atrofdegilariga hurmat va mehr bilan yondashadi, bu esa jamiyatda tinchlik va o'zaro ishonchni shakllantiradi.

3. Insonning o'zini rivojlantirishi: Yusuf Xos Hojib, har bir insonning o'zining axloqiy va ruhiy jihatdan rivojlanishini ta'kidlaydi. U kishilarni o'z ustida ishlashga, axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga chaqiradi. Unga ko'ra, insonning o'zini doimiy ravishda tarbiyalashi va yaxshilashi kerak.

4. Tenglik va bag'rikenglik: Yusuf Xos Hojib jamiyatda tenglikni va bag'rikenglikni muhim axloqiy qadriyat deb hisoblaydi. U turli ijtimoiy sinflar, irqalar va diniy guruhlar o'rtasida adolatli munosabatlarni ta'minlash zarurligini urg'ulagan.[7]

Asarda xushxulqlik va mehr-oqibat insonning jamiyatdagi o'rnini belgilashda muhim o'rin tutadi. Yusuf Xos Hojib odamlarni o'zaro munosabatlarda sadoqat, mehr-muhabbat va bag'rikenglikka chaqiradi. Uning fikriga ko'ra, har bir inson boshqalarga yordam berish, yaxshi so'zlar aytish, bir-birini hurmat qilish orqali

jahonni go'zal va tinch qilishga hissa qo'shadi. Mehr-oqibat, Hojibning so'zlariga ko'ra, nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy barqarorlik uchun ham muhimdir.

Alloma komil inson tarbiyasida til, so'z va muomala odobi muhimligiga quyidagi jumalarda to'xtalib o'tgan: Til arslon misoli yotar qafasda, bexabar boshini u er nafasda, tilidan tutilgan ne deyar eshit, amal qil bu so'zga, o'zingga ish et, balo keltiradi boshga bu tilim, so'zinngi tiyib yur boshing yormasin, tilingni tiyib tur tishing sinmasin. Alloma, aql, til, farosatni o'z vaqtida va o'z joyida ishlatish lozimligini ta'kidlab, inson ikki narsa tufayli qarilik nimaligini bilmaydi, xush qiliq va ezgu so'z. Alloma muomala odobi haqida to'xtalar ekan qo'pol so'z kishiga ofat keltiradi, hasadli so'z kishining rangini somonga aylantiradi. Yusuf Xos Hojib Oyto'ldi misolida kamtar, dono, rostso'zli insonni keltiradi. Oyto'ldi farzandi O'gdo'lmishga inson odobihaqida qator nasihatlar qiladi. "Kimki farog'atli kunni istasi, u fe'l-atvorini sozlashi, to'g'rilik va rostlikni tanlashi lozim. Ko'pchilikka bosh bo'lgan kishining yo'li adolat, fe'li ravon, qilmishi ezgulik bo'lmog'i, yomonlardan uzoq turmog'i shart". Yusuf Hos Hojib asarida chiroyli suhbatni axloq shaklida, shaxs ma'naviy qiyofasining muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rsatadi. Tilingdan chiqarma bu yolg'on so'zing, bu yolg'on tufayli qoradir yuzing.[8]

Yusuf Xo'ja Hojibning axloqiy qarashlari o'zining kengaytirilgan va ilmiy yondashuvi bilan alohida ajralib turadi. U nafaqat o'z davrining axloqiy me'yorlarini, balki insoniyatning universal axloqiy qadriyatlarini ham ifodalaydi. Uning asarida tasvirlangan fazilatlar, har bir insonning o'zligini anglash va rivojlantirishga bo'lgan qiziqish, hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Shu bilan birga, Yusuf Xos Hojibning ta'limotlarida ijtimoiy adolatning, iymonning, va axloqiy qadriyatlarning jamiyatdagi roli bo'yicha yirik xulosalar o'rin oladi. Hojib, axloqiy fazilatlarni rivojlantirish orqali insonlar o'rtasidagi hamjihatlik va barqarorlikni ta'minlashga katta urg'u beradi. Bugungi kunda bu tamoyillarni hayotga tadbiq etish, jamiyatda yanada sog'lom va tinch muhitni yaratishda katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Yusuf Xos Hojibning axloqiy qarashlari zamonaviy jamiyat uchun hali ham dolzarbdir. Uning ta'limotlari shaxsiy va jamiyat darajasidagi axloqiy masalalarni hal etishda yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi. Uning axloqiy qarashlari insoniyatning o'z-o'zini anglashga, adolatga, iymonga, va ruhiy rivojlanishga qaratilgan tamoyillarini shakllantiradi. Yusuf Xos Hojibning axloqiy qarashlari, bir tomondan, tarixiy ahamiyatga ega bo'lsa, boshqa tomondan, uning o'zgaruvchan dunyoda ham samarali qo'llanilishi mumkin. Uning asari faqat o'z zamonida emas, balki hozirgi kunda ham yuksak ma'naviy me'yorlarni belgilaydi. Yusuf Xos Hojibning g'oyalari bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, har bir insonni ma'naviy yuksalishga chaqiradi va dunyoning har bir nuqtasida haqiqiy axloqiy mukammallikni izlashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi // <http://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>
2. Радлов В.В. Кутадгу билиг. Факсимила уйгурской рукописи императорской и королевской придворной библиотеки в Вене. Спб., 1990, - 220 с
3. Fitrat. Qutadg'u bilig. - Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 11 jild. Ilmiy asarlar. Nashrga tayyorlovchi va izoxlar muallifi H.Boltaboev. - T.: Ma'naviyag, 2000, -B.11-17
4. Ахметова А.К. Педагогические взгляды Юсуфа Хас Хаджиба Баласагунского (по поэме "Кутадгу билиг"): Автореф.. канд. пед. наук. - Т, 1990. – 17
5. Tursunova, M. "Yusuf Xos Hojib va uning axloqiy me'yorlari". Toshkent: Fan. 2010.
6. Davronov, R. "Yusuf Xos Hojibning adolat va tenglik haqidagi qarashlari". Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. 2012.
7. Пўлатова, Д. А. (2024). ГЛОБАЛ ТАХДИДЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА ИСЛОМ ФАЛСАФАСИ АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРИНИНГ ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(1), 457-466.
8. Akmalovna, P. D. (2024). FEATURES OF THE CONCEPT OF MORAL IMPROVEMENT OF PERSONALITY OF CENTRAL ASIA THINKERS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT*, 3(2), 244-251.
9. Po'Latova, D. A. (2025). ISLOM FALSAFASI AXLOQIY QADRIYATLARI TIZIMIDA ADOLAT TUSHUNCHASIGA ANALITIK YONDOSHUVLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(1), 354-360.
10. Pulatova, D. A. (2025). ISLOM FALSAFIY AN'ANALARIDAGI AXLOQIY QADRIYATLARINING TARIXIY TAHLILI. *International scientific journal of Biruni*, 4(1), 72-79.
11. Yusuf Xo'ja Hojib, "Qutadg'u bilig", tarjima va izohli nashr, 2010.
12. Uralov, D., & Shodmonova, L. (2024). IBN SINONING INSON VA MA'NAVIY KAMOLOT MASALASIGA MUNOSABATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(26), 334-338.
13. Uralov, D. (2024). JAMIYAT XAVFSIZLIGI VA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOG'LOM MAFKURALARNING ROLI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR. *International scientific journal of Biruni*, 3(1), 222-228.
14. Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig. Toshkent: Yulduzcha, 1990, -B.36.